

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
MIRKARIM OSIM QISSALARI POETIKASI

Erkinjonova Sadoqat

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirkarim Osimning tarixiy qissalari poetikasi haqida fikr yuritiladi.

Annotatsion: This article discusses the poetics of Mirkarim Osim's historical stories.

Аннотация: В данной статье рассматривается поэтика исторических рассказов Миркарима Осима.

Kalit so‘zlar: Tarix, muhit, davr muhiti, urush, zamon, ruhiyat..

Key words: History, atmosphere, atmosphere of the era, war, time, mentality.

Ключевые слова: История, атмосфера, атмосфера эпохи, войны, времени, ментальитет..

Ma’lumki, kishilarning o‘tmishda kechgan tarixiy hodisalar haqidagi bilimlarini boyitishda adabiyot asarlari ham alohida rol o‘ynaydi. Katta iste’dod bilan yaratilgan har bir tarixiy roman, qissa, hikoya, drama, doston va she’rlarda olis zamonlarda bo‘lib o‘tgan voqealar, u paytlarda yashagan kishilarning qiyofasi jonli va ta’sirchan gavdalantiriladi.

E’tibor berib qaraydigan bo‘lsak, tarix to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlarda yoki tarixchi solnomachilar tomonidan bitib qoldirilgan va arxivlarda saqlanayotgan manbalarda bo‘lib o‘tgan voqyealar bayon qilinib, ma’lum bir davrdagi kechmishlarning ishtirokchilari nomi, amal-mansabi, maqsadi aniq kayd qilingan bo‘ladi. Badiiy asarlarda esa voqealarni bo‘lib o‘tgan zamon va makon tasvirlanib, o‘sha davr odamlarining turmush tarzi, kiyinishi, dunyoqarashi, urfuudumlari, o‘zaro munosabatlari badiiy tarzda gavdalantiriladi.

Mirkarim Osimning asarlari ham olis o‘tmishda yashab o‘tgan ajdodlarimizning hayoti, turish-turmushi, qahramonliklari, xarakterlari to‘g‘risida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

har qanday olim, solnomachi bitikchining asaridan ko‘ra aniqroq tasavvur beradi. Uning asarlarida zamon va makonlarga xos belgi, xususiyatlar ustida musavvir mo‘yqalami bilan yaratilgan kartinaday yorqin ko‘rsatilgani ayniqsa, e’tiborlidir.

Mirkarim Osim XX asr o‘zbek adabiyotiga munosib hissa qo‘shtigan ijodkorlardan bo‘lib, o‘zining tarixiy mavzudagi asarlari bilan elga tanilgan. Misol uchun: “Shiroq”, “To‘maris” qissalari zahmatkash ijodkor nomini ham tarixga muxrladi.

Adib bir umr tarixiy asarlar yozish bilan mashg‘ul bo‘lib, yangi-yangi avlodlarni tarixiy o‘tmish va uning mashhur kishilariga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalab, vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalarini ulug‘ladi¹. Vatanparvarlik, yurt, zamin uchun jonini fido qilgan Shiroq, To‘maris, Spitamen qanchadan-qancha qalblarda qahramonlik tuyg‘usini uyg‘otib, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy, buyuk tabib Ibn Sino va mashhur olimlar Beruniy, Xorazmiyning dunyo madaniyatiga qo‘shtigan hissasi ulug‘ ajdodlar merosidan baha olishga va faxrlanishga undadi.

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurov “O‘tror bog‘lari” esesida shunday yozganda haq edi: “Mirkarim Osim o‘z asarlarida ulug‘ bobolarimiz qalblariga nazarbin soladi va u qalblarda bitmas-tuganmas dov,adolat va insonparvarlik ko‘radi. Biz uning asarlari orqali Sinoni bobomiz deb sevganmiz. Abu Rayhon zakovatiga ta’zim qilganmiz. Alisher zehni dahosidan hayratga tushganmiz. Kichkina Alisher bilan Yazd cho‘llarida ot ustida uxbab qolib yo‘ldan adashganmiz va adashganda o‘zimizni yo‘qotib qo‘ymaganmiz. Mirkarim Osim tasvirida Alisher qanchalar sodda va qanchalar odamga yaqin va mahram tuyuladi”².

Mirkarim Osim o‘z tengdoshlari Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhorlar qatorida arab, fors, turkiy tillarni mukammal bilgan³. Bu shubhasiz, uning uzoq o‘tmish bilan bog‘liq tarixiy voqyeliklarni badiiy asar shaklida o‘quvchilarga taqdim qilishda qo‘l kelgan. Ziyoli oiladagi muhit, qolaversa, 1918-

¹ <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/mirkarim-osim-1907-1984/>

² kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ibrohim-gafurov-otrор-bogлari-mahmud-sattor-mirkarim-osimning-isi.html

³ Осим М.”Карвон йўлларида” Сайланма: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент - 1987— 3 б.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1921 yillarda “Shams ul-Urfon” nomli boshlang‘ich maktabdagi tahlil Mirkarim Osimning sharq tillarini o‘zlashtirishda ham katta o‘rin tutgan.

Mirkarim Osim Narimonov nomidagi ta’lim va tarix texnikumida o‘qiganligi ham uning yuqoridagi asarlarni yozishiga katta turtki bo‘lgan desak yanglishmaymiz. Bundan tashqari o‘zining samarali faoliyati davomida tarix fanidan qo‘llanma, tavsiya, darsliklar yaratib, ta’lim rivojiga ham munosib hissa qo‘shdi.

Adibning dastlabki yirik asari ham tarixiy qissa bo‘lib, “Astrobodnomi bilan chop etilgan. Asar Alisher Navoiy hayotiga bag‘ishlangan. Bu asari unga katta ilhom manbai bo‘lib xizmat qilganligini ketma-ket yozgan “Alisher Navoiy va Darveshali”, “Badarg‘a”, “Navoiyning xislatlari”, “Ulug‘bek va Navoiy” singari turkum tarixiy qissa va hikoyalaridan ham bilishimiz mumkin. Bu turkum qissalarida ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning badiiy obrazi o‘zbek adabiyotida birinchi marta epik planda aks ettirilganini ko‘rishimiz mumkin va bu ijodkorning o‘ziga xos poetik uslubini ham namoyon etadi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, badiiy turkumlilik – bu muallif tomonidan ma’lum bir ketma-ketlikda birlashtirilgan mustaqil asarlar to‘plami bo‘lgan badiiy tizimdir.

Mirkarim Osim qissalarining salmoqli ta’siri va mantiq quvvatining natijasidir. Tabiiyki, balog‘at bosqichidagi adib Navoiy dahosini bugungi boy va baland saviyali zamonaviy tafakkur nuqtai nazaridan yoritadi. Ulug‘ zotning ichki iztirob va hissiyotlarini Navoiy yoshidan o‘tgan, katta hayotiy tajribali ijodkor qalbi bilan tasvirlaydi.

Mirkarim Osim Markaziy Osiyo xalqlari tarixining eng qadimgi davridan 1917-yilga qadar kechgan vaqt ichida o‘tgan muhim tarixiy voqyealarni va shu davrda yashagan o‘zbek xalqi ulug‘ siymolari hayotini aks ettiruvchi o‘nlab qissa hamda hikoyalarni yaratdi. “To‘maris”, “Shiroq”, “Iskandar va Spitamen”, “Temur Malik”, “Mahmud Torobiy”, “O‘tror” kabi qissalarida ajdodlarimizning xorijiy istilochilarga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashlarini zo‘r mehr bilan tasvirlangan.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Mirkarim Osim o‘z asarlarida AmirTemur, Ulug‘bek, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mashrab singari o‘zbek xalqi ulug‘ farzandlarining yorqin obrazlarini yaratib bergen. Uning “Zulmat ichra nur”, “Ajdodlar qissasi”, “Jayhun ustida bulutlar”, “Aljabrning tug‘ilishi”, “Ibn Sino qissasi”, “Singan setor” singari asarlari o‘zbek tarixiy qissachiligining yuksak namunalari sanaladi.

Mirkarim Osimning 1987-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan chop etilgan “Karvon yo‘llarida” saylanmasiga so‘zboshi yozgan Mahmud Sattorov tarixchi adibning asarlarini davriy jihatdan tasniflaydi va quyidagi uch guruhga ajratish mumkinligini yozadi:

1. Tariximizning qadimgi davrlari haqidagi hikoyalar (Makedonskiy, arab xalifaligi, Eron shohlari bosqini, mo‘g‘ul istilosи).
2. O‘rta asrlar tarixidan hikoya qiluvchi asarlar (fan va madaniyat arboblari haqida qissa va hikoyalar).
3. XVIII asrdan to 1917-yilga qadar bo‘lgan davr tarixiy hayoti haqidagi asarlar.

Shu bilan birga M.Sattorov Mirkarim Osim asarlarini mavzu yo‘nalishi bo‘yicha ham tasniflaydi va quyidagi uch katta guruhda tahlil qilish, baholash mumkinligini qayd etadi:

1. Tarixiy-qahramonlik mavzuidagi asarlar.
2. Tarixiy-maishiy mavzudagi asarlar.
3. Tarixiy-biografik asarlar⁴.

Qahramonlik mavzuiga ijodkorning “O‘tror”, “To‘maris”, “Temur Malik”, “Aleksandr va Spitamen” kabi asarlarini kiritish mumkin.

Maishiy mavzudagilarga “Mohlar oyim va Xonposhsha”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Elchilar” kabi asarlari kiradi.

Tarixiy-biografik asarlarning namunalari qilib adibning “Zulmat ichra nur” (Navoiy), “Jayhun ustida bulutlar” (Beruniy), “Ibn Sino qissasi”, “Aljabrning tug‘ilishi” (Al-Xorazmiy), “Singan setor” (Mashrab) kabi qissalarini ko‘rsatish mumkin.

⁴ Осим М.Карвон йўлларида. Сайланма: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент - 1987— 5 б.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, buyuk ajdodlarimiz haqida o‘lmas asarlar yaratgan yozuvchining hayoti ustida bulutli kunlar ham bo‘ldi. U ham minglab ziyolilalarimiz qatorida Stalin qatag‘onining begunoh qurbanlaridan biri bo‘ldi. Taqdirning o‘yinini qarangki, uning vatanparvarlik, millatparvarlik, o‘tmishga muhabbat ruhidagi asarlari sosialistik g‘oyalarga yot sifatida baholandi va adib ko‘p yillar sho‘ro rejimining azoblarini chekdi. 1950-yillarda vatanimizga qaytgan san’atkor tarixiy asarlar yozishda davom etadi.

Adabiyotshunos olim Mahmud Sattorovning fikriga ko‘ra, Mirkarim Osimning tarixiy asarlarining yaratilishida taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim G‘afurovning ham fikrlari katta o‘rin tutgan: “Mirkarim Osim Stalin qatag‘oni zug‘umlarini boshdan kechirib kelib, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyotida oddiy muharrir bo‘lib ishlab, keyinchalik xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan “Jayxun ustida bulutlar” (Beruniy), “Ibn Sino qissasi”, “Aljabrning tug‘ilishi” (Muhammad Xorazmiy), “Singan setor” (Mashrab), “Mohlaroyim va Xonposhsha” (Nodirabegim) kabi tarixiy qissa va hikoyalarini Ibrohim G‘afurov ko‘z o‘ngida (ba’zan ustoz-shogird maslahatlashib) yozdi, unga o‘qitib, fikrini oldi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/mirkarim-osim-1907-1984/>
2. kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ibrohim-gafurov-otrор-boglari-mahmud-sattor-mirkarim-osimning-isi.html
3. Осим М.”Карвон йўлларида” Сайланма: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент - 1987— 3 б.
4. Осим М.Карвон йўлларида. Сайланма: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент - 1987— 5 б.